

## “MASOFAVIY NAVBAT” DASTURIY TA’MINOTI

*Sultonmuratova Mashhura Quvonchbek qizi*

*TATU Urganch filiali talabasi*

*E-mail: [sultonmuratovamashhura@gmail.com](mailto:sultonmuratovamashhura@gmail.com)*

**Annotation.** Bu maqolada hozirda yurtimizdagi aksariyat hududlaridagi aholi o‘rtasidagi muammolardan biri bo‘lgan shifoxonalardagi navbat kutib qolish muammosiga yechim topilgani haqida ma’lumot olasiz. Dasturiy ta’minotning qay tartibda va qanday ishlashi, aholiga xizmat ko‘rsatishdagi afzalliklari haqida bilimlarga ega bo‘lasiz va bu ilova orqali masofaviy tarzda ko‘rikdan o‘tish an’anaviy tarzdagidan qanday ustunliklari borligi haqida ko‘rsatmalar keltirilgan.

**Аннотация.** В этой статье вы узнаете, как найти решение проблемы очередей в больницах, которая в настоящее время является одной из проблем среди населения в большинстве районов нашей страны. Вы получите знания о том, как и в каком порядке работает программное обеспечение, каковы его преимущества для обслуживания населения и каковы преимущества удаленного тестирования через это приложение по сравнению с традиционным способом.

**Annotation.** In this article you will learn about the solution to the problem of queue waiting in hospitals, which is now one of the problems among the population in most regions of our country. In what order and how the software works, you will have knowledge of the benefits of providing services to the population, and through this application, instructions are presented on what advantages the remote examination has over the traditional one.

**Kalit so‘z:** Dasturiy ta’minot, masofaviy navbat, shifoxona, bemorlar, navbat, aholiga xizmat ko‘rsatish.

**Ключевые слова:** Программное обеспечение, дистанционное обследование, больница, пациенты, очередь, обслуживание населения.

**Key words:** Software, remote inspection, hospital, patient, queue, population service.

**Kirish.** Assalomu aleykum aziz izlanuvchanlar! Barchamizga ma’lumki, yurtimizda aksariyat hududlarda shifoxonalarda noroziliklarga duch kelamiz. Bu esa o‘z navbatida, asabiylashish, vaqtini bekorga sarflash, ayrim hollarda, kasallikning ham yanada avj olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu va shunga o‘xshash muammolarning oldini olish maqsadida men o‘z loyihamni ishlab chiqdim.

Tub islohotlarning dastlabki kunlaridan boshlab xalqimiz sog‘lig‘ini mustahkamlash eng ustuvor vazifa deb qaralib kelmoqda. O‘tgan besh yilda bu borada katta ishlar amalga oshirildi, ilg‘or xorijiy yutuqlarni o‘rganib, yetarli tajribalar

to‘plandi. Kelgusi besh yilda ham aholini sifatli va malakali tibbiy xizmat bilan ta’minalash, sog‘lom turmush tarzini keng qaror toptirishni Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo‘nalishi sifatida belgilab olindi. Albatta yurtimizda aholi xizmat ko‘rsatish yuqori darajada va yildan-yilga sifat yaxshilanyapti. Bunga qo‘sishimcha tarzda aholiga qulayliklar yaratishning foydasi katta.

Shifoxonalardagi muammolarga yechim topish maqsadida dasturiy ta’minot loyihasi ishlab chiqildi. Dasturiy ta’minot “MASOFAVIY NAVBAT” nomi bilan nomlangan. Barchamizga ma’lumki, o’tgan yaqin yillarda koronavirus pandemiyasi butun dunyoda avj oldi va shu qatorda bizning yurtimizni ham chetlab o’tmadni. Ayni damda ham kasallik butunlay yo‘q bo‘lmaganligiga ko‘ra, biz o‘zimizni asrab-avaylashimiz, ayniqsa, shifoxonalarda yuqumli kasallik orttirishdan saqlanishimiz zarur. “Masofaviy navbat” dasturiy ta’minoti ham aynan shu kabi muammolarni oldini olishda qator afzallikkarga ega.

Dasturiy ta’minot loyihasi mobil ilova tarzida ishlab chiqildi va internet tarmog‘i orqali foydalaniladi. Mobil ilova “Masofaviy navbat” nomi bilan nomlangan. Ilovaning eng katta afzalliki bu - masofaviy tarzda istalgan shifokoringiz ko‘rigiga masofaviy tarzda navbatga yozilishingizdir. Mobil ilovadan dastlabki foydalanishingizda sizdan shaxsiy ma’lumotlaringiz so‘raladi va shu orqali yashash hududingiz yaqinidagi shifoxonalar avtomatik tarzda dasturiy ta’minotingizda aks etadi. Shifoxonalar ro‘yxati aks etganidan so‘ng istalgan shifoxonangiz linkiga bosishingiz va ma’lumotlarini olishingiz mumkin bo‘ladi. Tanlangan shifoxonadagi barcha shifokorlar haqida ma’lumotlar chiqadi ya’ni shifokorning xonasi, qancha bemor navbatga yozilganligi, agarda siz ham navbatda turmoqchi bo‘lsangiz nechanchi bo‘lib navbatga yozilishingiz, qancha vaqtida navbatingiz kelishi, shifokorning ish vaqtini bilish va navbatga turish kabi ko‘plab afzallikkordan foydalanishingiz mumkin bo‘ladi.

Dasturiy ta’minotning yana bir afzallik jihat shundaki, navbatingiz kelgan vaqt mobil ilova sizni avtomatik tarzda maxsus ohang orqali ogohlantiradi ya’ni siz navbatim qachon keladi ekan deb internet tarmog‘ida kutish o‘tirishingiz shart emas. Navbatingiz kelguncha bemalol xohlagan ijtimoiy, shaxsiy ishlaringizni bajaringiz mumkin bo‘ladi. Bu ham vaqtini tejaydi, ham shifoxonalarda kutish natijasida asabiyashishingizni oldini oladi.

Mobil ilovada “Shoshilinch tez tibbiy yordam” ga murojaat qilish imkoniyati ham mavjud. Aniqroq qilib aytganda, shoshilinch tez tibbiy yordamdan foydalanmoqchililingizda qachon keladi ekan deb, xavfsirashingizga o‘rin qolmaydi. Dasturiy ta’minot orqali siz buyurtma qilgan mashina qaysi joyga yetib kelgani, qancha daqiqada uyingizga yetib kelishi haqida ham avtomatik tarzda ma’lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin.

“Masofaviy navbat” ilovasidan yengil kichik ko‘riklar orqali shifokor tavsiyasini ham olishingiz mumkin. Shifokor tavsiyasisiz ham foydalansa bo‘ladigan

dorixonalarda sotiladigan dorilarni qanday asoratlar yuz berganida foydalanishingiz mumkinligi haqida ham bayonat keltirilgan. Masalan, yengil bosh og‘rig‘i sizda kuzatilayotgan bo‘lsa, “(bu yerda yengil kasallikka 1-yordam ko‘rsata oladigan dori nomi) dan foydalanishingiz mumkin” bo‘ladi kabi tavsiyalar sizga berilgan bo‘ladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bizga yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda muammolarga zamonaviy yondashishga harakat qildik. Ushbu loyiha xalqimiz salomatligini asrab-avaylashga katta hissa qo‘sadi. Hozirgi vaqtida tibbiyot sohasi rivojlanib borayotgan davrda aholi o‘rtasidagi bemorlar bilan bog‘liq muammolarni kamaytirishga sezilarli darajada yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. yuz.uz
2. gazeta.uz